

O'ZBEK OILALARIDAGI AJRALISHLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIGA TURLI AVLOD VAKILLARINING MUNOSABATLARI

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, direktori, psixologiya fanlari nomzodi, professor.

Annotatsiya: Ushbu maqoladi oila va oilaviy munosabatlar muammolarining psixologik tadqiqi, oilaning an'anaviy funksiyalariga nisbatan munosabatlarning o'zgarib borayotganligi, o'zbek oilasidagi nizolar va ularning vujudga kelishiga doir ijtimoiy-psixologik xarakterdagi empirik ko'rsatkichlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy munosabatlar, ajralish, er-xotin, jamiyat, oilaviy nizolar.

ОТНОШЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ РАЗНЫХ ПОКОЛЕНИЙ К СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ ХАРАКТЕРИСТИКАМ РАЗВОДА В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Рўзиқулов Фахриддин Расулович

Навоийский областной национальный центр подготовки педагогов новым методам, директор, кандидат психологических наук, профессор.

Аннотация: данная статья представляет собой психологическое исследование проблем семьи и семейных отношений, изменение отношения к традиционным функциям семьи, выделены конфликты в узбекской семье и эмпирические показатели социально-психологической природы их возникновения.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, расставаться, пара, общество, семейные конфликты.

ATTITUDES OF REPRESENTATIVES OF DIFFERENT GENERATIONS TO SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DIVORCE IN UZBEK FAMILIES

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich

Navoi Region National Center for Training Teachers in New Methods, Director, Candidate of Psychology, Professor.

Annotation: this article is a psychological study of family and family relationship problems, changing attitudes towards the traditional functions of the family, conflicts in the uzbek family and empirical indicators of a socio-psychological nature of their occurrence are highlighted.

Key words: family, family relationships, breaking up, couple, society, family conflicts.

Kirish. Oila va oilaviy munosabatlar muammolarining psixologik tadqiq etishning ahamiyati o'sib bormoqda. So'ngi yillarda oilaviy ajralishlar soni oshdi, noto'liq oilalar soni ko'paymoqda, farzand tarbiyasi va ota-onalik munosabatlarga nisbat qadriyatlar o'zgarib bormoqda.

O'zbek etnosida oilasida fuqarolik jamiyatni va diniy omillarning o'rniiga doimiy ravishda e'tibor qaratiladi. O'zbek tadqiqotchilarining oilaning jamiyat va islam dinidagi tutgan o'rni masalasiga doir mulohazalarida "Qur'oni karim"da va dinimizning boshqa ta'limotlarida oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan. Oila qurmasdan, tarkidunyo chilik yo'lini tutish qoralanib, buning aksi bo'lgan nikoh ibodat darajasiga ko'tarilgan. Hazrati Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom nikohlanish faqat o'zlarining sunnati emas, balki o'tgan barcha payg'ambarlarning ham sunnati ekanini aytganlar. Islam ta'limotiga ko'ra, oila Alloh taolonning roziligini topish, hazrati payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam axloqlari, chiroyli odob-axloq bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy aloqalarning eng muhimmi sifatida va axloqiy me'yordan biri ekanligini nazarda tutgan holda, uni juda qadrlaydi. Shuningdek, o'zbek oilalarida risoladagi ayol va risoladagi er timsollariga xos chizgilar ham mavjud. "Islam dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'on va hadislarda ham odob-axloq, oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan[1].

Asosiy qisim: Bizning olib borgan tadqiqotlarimizda o‘zbek oilasidagi nizolar va ularning vujudga kelishiga doir ijtimoiy-psixologik xarakterdagi empirik ko‘rsatkichlarni yoritib o‘tgan bo‘lsakda, oilaviy ajralishlarning tub mohiyatini yoritish imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Shuning uchun muammoning o‘ziga xosligini yoritish borasida turli avlod vakillarining oilaviy ajralishlarga nisbatan munosabatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishga erishildi.

Oila jamiyatdagi inson hayoti uchun muhim rol o‘ynaydi, jamiyat rivojlanishining ma’lum bir bosqichida tegishli va zarur shaxsiy xususiyatlarni, munosabatlarni, qadriyatlarni va xatti-harakatlarni shakllantiradi. Oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning risoladagidek ishlashi uchun sharoit yaratadi. Jamiyatning oilaga nisbatan munosabatiga qarab, u tomonidan hal qilinadigan vazifalar doirasi o‘zgaradi, yangi o‘ziga xos bo‘lmagan funksiyalar dolzarb bo‘lib, oilaning hayotiy faoliyatining tarixan o‘zgaruvchan timsolini hosil qiladi. Oqibatda, oila o‘ziga xos bo‘lmagan vazifalarni amalga oshirishga, nikoh va oilaviy munosabatlarni rivojlantirishning muqobil an’analarni yaratishga qaratilgan oila va nikohning eng yangi shakllarini hosil qilmoqda.

Hozirgi vaqtda sherik tanlashda erkinlik va u bilan munosabatlar shakllari cheklanmagan, boshqa tomonidan, ushbu tanlov natijasi uchun shaxsiy javobgarlik kuchayadi. O‘z navbatida, keksa avlod o‘zgarishga majbur bo‘ladi, xususan, konsepsiya va ularning farzandlari tomonidan tanlanishi mumkin bo‘lgan an’anaviy nikohning yangi alternativalariga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Ajralish muammosi zamonaviy oiladagi munosabatlar turining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq: yangi oilaviy modellar ushbu munosabatlarning uzilishining o‘ziga xos shakllarini yaratadi. Agar an’anaviy nikohda ajralish deganda ikkala tur mush o‘rtog‘ining hayotini qayta tashkil etishga olib keladigan huquqiy, iqtisodiy, psixologik nuqtai nazardan munosabatlarning uzilishi tushunilsa, oilaviy munosabatlarning zamonaviy shakllari, ular tugaganidan keyin ham psixologik jihatlar bosh sabab bo‘lib qolishi taxmin qilinadi.

Oilaning an’anaviy funksiyalariga nisbatan munosabatlarning o‘zgarib borayotganligi faol ijtimoiy o‘zgarishlar natijasidir. Hattoki, oilaning parchalanishi, afsuski, deyarli xalqaro ahamiyatdagi jiddiy ijtimoiy muammo tusini olgan. Jahonda oilaviy ajralishlar statistikasining ortib borishidagi an’analari o‘zbek oilalaridagi ajralishlarda ham kuzatilmoqda. Ushbu muammoni o‘rganish uchun “Oilaviy ajralishni baholash” shkalasi (F.R.Ro‘ziqulov)dan foydalanildi[3].

Tadqiqotda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi ajralishga yuz tutgan oilalar o‘rganildi. Buning uchun mahalla fuqarolar yig‘ini vakillari, FHDYO (fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish) va sud qarorlari bilan tanishish asosida ajralishayotgan va ajralishgan oilalarning er-xotinlarning qadriyatlar tizimini o‘rganishga erishildi. (Shkala natijalari 1-jadvalda keltirilgan).

Ajralish xususidagi turli avlod vakillarini o‘rganishga doir izlanishimizda o‘ziga xos munosabatlar kuzatilgan. Ushbu munosabatlarda ajralishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati borasida turli avlod vakillarining munosabatlarda o‘xshashlik va tafovutlar aniqlandi. Birinchi baholash shkalasi, ajralish jamiyat miqyosidagi muammo ekanligi turli avlod vakillari tomonidan deyarli bir xil darajada baholangan (18-30 yoshlilar-151,38; 36-49 yoshlilar-158,53; 50 yosh va undan yuqori yoshlar-160,49). Demak, o‘zbek etnosida aholining har bir bosqich vakillari oilaviy ajralishning ijtimoiy ahamiyatli va jamiyat tomonidan doimiy hal etishni taqazo etadigan muammo hisoblanadi. Bugungi kundagi oilaviy ajralishlarning ortib borayotganligi har bir shaxs (fuqaro)ning e’tiborini o‘ziga tortmoqda. Biroq oilaviy ajralishlar borasida munosabatlarning keyingi shkalalarida statsistik ahamiyatga ega ko‘rsatkichlar aniqlandi.

1-jadval

**Turli avlod vakillarining oilaviy ajralishni baholash shkalasi bo‘yicha
ko‘rsatkichlari**

Baholash mezonlari	O‘rtacha rang			N (Kraskel-Uolles)	r
	18 -30 yoshda	31-49 yosh	50 yosh va undan yuqori		
Oilaviy ajralish jamiyat miqyosidagi muammo	151,38	158,53	160,49	10,784	0,078
Ajralish chorasisiz qolgan holatlarda qo‘llanilishi muhim	152,43	170,10	178,37	39,542	0,000***
Oilaviy ajralish insonlarning shaxsiy masalalari	185,21	144,94	107,25	47,387	0,000***
Oilaviy ajralishlar er-xotin munosabatlaridagi muammolarning asosiy yechimidir	182,34	168,73	132,18	37,641	0,000***
Oilaviy ajralishlar shaxslarning hayotini yangidan boshlashga imkoniyat yaratadi	187,32	162,57	118,57	40,667	0,000***
Oilaviy ajralishdan so‘ngra er-xotinlar va oila a’zolari ruhiy tanglikdan xalos bo‘ladilar	174,76	155,16	133,77	39,657	0,000***
Ajralish shaxslarga yangi hal etilmagan muammolarni taqdim etadi	127,45	166,78	183,62	42,349	0,000***
Ajralishning farzand tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi	153,07	168,74	177,01	46,758	0,000***

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Ellek va undan yuqori yoshdagagi respondentlar oilaviy ajralishlarning yuz berishi er-xotin munosabatlarining o‘ta chorasisiz qolgan holatlarda qo‘llanilishi muhim ekanligini yoqlaganlar (178,37 va N=38,542; r≤0,01). Ularning mulohazasiga ko‘ra ajralishning oiladagi er-xotin munosabatlarning yechim topishi qiyin va o‘ta tanglik holatlarda qo‘llash maqsadlilir. O‘z navbatida o‘rta avlod vakillari (31-49 yoshlilar)da ham ajralishga munosabat katta avlod vakillarinikiga yaqin kelmoqda (170,10). O‘rta avlod vakillari bir tomonidan oilaviy tajribasini boshdan kechirgan, ikkinchisi esa oilaviy munosabatlarning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan shaxslardir. Ular oilali hamda qaynona-qaynota statusiga ega bo‘lganlar. Oiladagi shaxsning ijtimoiy statusining bosqichini o‘tashlari bilan ajralib turibdilar. Ularning shaxsiy tajribalari oilaviy ajralishlarga keskin tus berib yubormaslik tarafдорлари hisoblanadi. Oilaviy ajralishning chorasi holatlarda tatbiq etilishi masalasiga yosh avlod vakillarining munosabatlari anchagina keskin

chiqmoqda. Ular oilaviy ajralishni chorasisz qolgan hollarda qo'llanish masalasiga qolgan ikki avlod vakillariga nisbatan o'ta muloyimlik bilan yondashganlar (152,43). Yosh avlod vakillarida oilaviy nizolar va kutilmagan ziddiyatli holatlarda ham ajrashishga ishtiyoq paydo bo'layotganligi bezizga emas. Bundan ko'rindiki, oilaviy ajralishlar jamiyat miqyosidagi muammolar hisoblansa-da, yosh avlod vakillarining fikricha, er-xotin munosabatlardagi ziddiyatlar tug'ilishi bilan ajrashishga yo'l ochishga moyillik mavjud bor deyish mumkin.

Respondentlarning oilaviy ajralish insonlarning shaxsiy masalalari bandi bo'yicha munosabatlarida ham statistik ahamiyatga ega farq aniqlandi. Yosh avlod vakillari (18-30 yoshlilar) ajralishning har bir insonning o'zi (er-xotin) hal etish muhim, boshqalarning bunga aralashishi maqsadli emas degandek xulosaga olib kelmoqda (185,), o'rta avlod (144,94) va katta avlod vakillari (107,25; N=47,387; r≤0,01) ajrashishga shaxsiy masalasi sifatda qarashni yoqlamaganlar. Ularning bunday fikrga kelishiga otababolarning oila sha'ni, oilaning qadr-qimmatiga alohida e'tibor qaratganliklari sababli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, respondentlar oilaviy ajralishlar er-xotin munosabatlardagi muammolarning asosiy yechimidir shkalasi bo'yicha ham munosabatlarda yosh avlod vakillari (182,34; N=37,641; r≤0,01) katta avlod vakillariga (132,18) nisbatan ahamiyatli tarzda baholaganlar. Bundan ko'rindiki, oila muammolariga nisbatan avlodlarning munosabatlari bir-biridan farqlanishi keskinlashib bormoqda. Bundan ko'rindiki, keyingi yillarda o'zbek etnosida ham oilaviy munosabatlar masalasida etnik an'analarning sekin-astalik bilan susayib borayotganligidan dalolat bermoqda. O'rta avlod vakillarida (168,73) ushbu masalada katta avloddan ko'ra yoshlarning munosabatga xayrixohlari mavjud deyish mumkin.

O'z navbatida oldingi shkaladagi singari oilaviy ajralishlar shaxslarning hayotini yangidan boshlashga imkoniyat yaratadi bandi bo'yicha ham yosh (187,32; N=40,667; r≤0,01) va o'rta avlodda (162,57) katta avlod (118,57) vakillaridan farqli ko'rsatkichlarni aks ettirdi. Ularning talqinicha, ajralishdan keyin er-xotinlar yangi hayotni boshlashlari mumkin degan xulosani bermoqda. Ajralish respondentlarning nazaricha oiladagi munosabatlardagi nizolar va ziddiyatlarni hal etishning asosiy sababi deb ko'rsatmoqdalar. Mazkur shkalaning davomi sifatida ajralish shaxslarga yangi hal etilmagan muammolarni taqdim etadi shkalasi bo'yicha moslikda ham kuzatish mumkin. Bu borada oilaviy ajralishdan so'ngra er-xotinlar va oila a'zolari ruhiy tanglikdan xalos bo'ladilar degan shkala bo'yicha ham yosh (174,76; N=39,657; r≤0,01) va o'rta avlodda (155,16) katta avlod (133,77) vakillaridan farq kuzatildi. Bu natijalar oldingi shkalani tasdiqladi. Yosh va o'rta avlod vakillarining mulohaza qilshicha oilaviy ajralishdan keyin er-xotin va oila a'zolari ruhiy tangliklardan xalos bo'ladilar degan qarashga egadirlar. Ammo katta avlod (183,62; N=42,349; r≤0,01) ajralish shaxslarga yangi hal etilmagan muammolarning taqdim etadi shkalasi bo'yicha yosh (127,45) va o'rta (166,78) avlodga nisbatan jiddiyroq munosabat bildirganlar. Ular oiladagi ajralish aksincha shaxsga yangi muammolarni keltirib chiqarishi unutmaslikni uqtirmoqda. Oilaviy ajralishdan keyin ajrashgan er-xotinlar yangi oila qurishlari kerak bo'ladi. Yangi oiladagi munosabatlar ham ko'ngildagidek bo'lish, bo'imasligi ochiq qoladi. Farzandlarni voyaga yetkazish yoki yangi oilada ularning o'rin topishi yangi muammolarga sabab bo'ladi. Katta yoshdagilar bu borada hayotiy tajribalar, atrofdagilarning hayotini kuzatishlari va o'zlaridan oldingi avlodlarning pand-o'gitlarini hisobga olib yondashadilar. Turli avlod vakillarining oilaviy ajralishlar borasidagi tadqiqotimiz davomida oilaviy ajralishga sabab bo'luvchi omillar yuzasidan munosabatlarini o'rganishga e'tibor qaratildi. Ajralishning sabablarini tahlilida ikki xil miqdoriy munosabatlarni ifodalashni lozim topildi. Birinchi holatda respondentlarning oilaviy ajralishning sabablariga nisbatan munosabatlari noparametrik mezonga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlanmalar ko'rsatkichlardagi tenglikni Kraskel-Uolles N-mezoniga muvofiq tekshirildi.

Xulosa.

Mahalla fuqarolari yig'ini vakillarining oilaviy ajralishlar asosiy sabab sifatida oilaviy munosabatlardagi qadriyatlarning o'zgarib borayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oiladagi nizolarning ko'payotganligini ko'rsatganlar.

Psixologlarning oilaviy ajralishlarning sababları bo'yicha xulosalarida er-xotinlarning oilaviy rollaridagi nomutanosiblik, oilaviy munosabatlardagi qadriyatlarning o'zgarib borayotganligi, keksa avlod vakillari bilan yosh avlod vakillarining oila to'g'risidagi munosabatlardagi nomutanosiblik bilan bog'liq izohladilar.

Yosh avlod vakillari sifatida talabalar jalb etildi. Ular oilaviy ajralishlardagi asosiy muammo sifatida oilaning moddiy ta'minotidagi yetishmovchiliklar, oiladagi nizolarning ko'payayotganligi, oiladan er

yoki ayolning migrant sifatida ishslashga ketayotganligini bosh sabablar sifatida baholadilar.

Ekspertlarning umumiy munosabatlari ko‘ra oilaviy munosabatlar doirasidagi qadriyatlarning o‘zgarib borayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oiladagi nizolarning ko‘payayotganligi, er-xotinlarning oilaviy rollaridagi nomutanosibligi, oilaviy munosabatlarda g‘arb madaniyatiga xos munosabatlarning kirib kelayotganligi orqali izohlandi.

Yosh avlod vakillari ajralishning har bir insonning o‘zi (er-xotin) hal etish muhim, boshqalarning bunga aralashishi maqsadli emas degan xulosa bergan, o‘rta avlod va katta avlod vakillari ajralishga shaxsiy masalasi sifatda qarashni yoqlamadilar. Bunday fikrga kelishiga ota-bobolarning oila sha’ni, oilaning qadr-qimmatiga alohida e’tibor qaratganliklarining ta’siridir.

Turli avlod vakillarining o‘zbek oilalarida ajralishlar sabablarining klassifikatsiyasi zamonaviy oilalarga xos oilaviy buzilishlar muammosi sifatida tavsiflashga xizmat qiladi. Oilaviy ajralishlar sabablari klassifikatsiyasi turli avlod vakillari nuqtai nazariga ko‘ra differensiallashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qur’oni Karim. Alauddin Mansur tarjimasi. -T.: Cho‘lpon nashriyoti, 1992. -3-237 b.
 2. Shoumarov G‘.B. Muhabbat va oila. -Toshkent: Ibn Sino, 1994. - 119 b.
- Ro‘ziqulov F.R. Ajralishlarni oldini olishga va oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan trening mashqlari. Uslubiy qo‘llamma. Navoiy: “Aziz kitobxon”, 2023.-76 b.
- Ro‘ziqulov F.R. Oilani musthkamlashning ijtimoiy-psixologik tamoyillari. Psixologiya jurnali. 4-son, 2011 y. 45-47 b.